ARPABODIYON O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI HAQIDA

Ikromova Yulduzoy Erkin qizi
Abduvahobova Dildora O`ktam qizi
Mamaraimova Gulinoza Mamatkarim qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Atrofimizdagi flora inson salomatligini saqlovchi asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Odamlar oziq-ovqat uchun o'simliklarning turli qismlarini yig'ib yurgan davrlaridanoq, ulardan og'riqni qoldiruvchi, qon to'xtatuvchi vosita sifatida, ba'zilarini esa yaralarni davolovchi ta'sirlari borligini sezganlar va ulardan keyinchalik vaqt o'tib borishi bilan dorivorvo sita sifatida foydalanib kelganlar. O'simliklarning bunday xususiyatlari borligi va ulardan foydalanishni dastlab bundan uch yarim ming yillar ilgari Misr shifokorlari qo'llaganlar. Hozirgi kungacha bunday o'simliklar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Shunday o'simliklardan biri arpabodiyon haqida to'xtalib o'tamiz.
Kalit so'zlar: Arpabodiyon, meva, efir, moy, damlama, oshqozon, ichak, vosita.

Arpabodiyon - ziradoshlar *(Apiaceae)* oilasiga mansub bir yillik o't-o'simlik**.** Poyasi tik o'suvchi, balandligi 30 - 60 (70) sm, ko'p qirrali, yuqori qismi shoxlangan. Ildiz bo'g'zidagi va poyasining pastki qismidagi barglari butun, uzun bandli, yumaloq, buyraksimon, tuxumsimon yoki bo'lakli, yirik tishsimon qirrali, poyaning o'rta qismidagilari esa uzun bandli, uch bo'lakli, arrasimon qirrali, yuqori qismidagilari qinli, 2-5 bo'lakka patsimon qirqilgan yoki nashtarsimon, poyada ketma-ket o'rnashgan. Gullari mayda, ko'rimsiz, oq rangli, murakkab soyabonda o'rnashgan.Soyaboni 7-15 nurli. Mevasi- tuxumsimon yoki teskari noksimon qo'shaloq pista.(1 – rasm)

May-iyun oylarida gullab, mevasi iyun-iyulda pishib yetiladi

Chet ellarda tarqalgan. O'zbekistonda ayrim joylarda ekib o'stiriladi.

Tibbiyotda arpabodiyonning mevasi va undan olinadigan efir moyidan foydalaniladi. O'simlikning yer ustki qismi mevasining 50-60% I pishgandan so'ng o'rib olinadi, bog'-bog' qilib bog'lab, mevalari tepaga qaratib, xirmonda usti berk joyga to'plab qo'yiladi. Xom mevalar yetilgandan so'ng, qurigan o'simlik yanchiladi va shamolda sovurib, elab, mevalari tozalanadi. Tozalangan mevalardan efir moyi olish va dorivor preparatlar tayyorlash uchun farmatsevtika zavodlariga yuboriladi.

Arpabodiyon mevasining tarkibida 1.2-3.2% (ba'zan 6%gacha) efir moyi, 8-28.4% yog', oqsil va boshqa moddalar bor.

100gr uchun ozuqaviy qiymat;
-energiya: 30-35 kkal
-uglevodlar: 7.2-7.5gr
-yog'lar: 0.2-0.3gr
-oqsillar: 1.2-1.5gr
-tiamin(B1 vitamini): 0.01mg
-riboflavin (B2 vitamini): 0.032mg
-niasin(B3 vitamini): 0.64mg
-pantotenik kislota(B5 vitamini): 0.322mg
-B6 vitamini: 0.047mg
-folat kislotasi(B9 vitamini): 27mg
-C vitamini: 12mg
-kalsiy: 49mg

-fosfor: 50mg
-temir: 0.73mg

Mevasining asosiy ta’sir etuvchi qismi uning tarkibidagi efir moyi, efir moyining asosiy qismi esa anetol anis aldegid(moy tarkibida 80-90% atenol bo’ladi) hisoblanadi.Bundan tashqari boshqa biologik faol moddalar ham mavjud.

Arpabodiyonning efir moyi o’ziga xos yoqimli hidli, shirin mazali , och sariq rangli yoki rangsiz suyuqlikdir.

Arpabodiyon mevasi o’z tarkibida saqlagan efir moyi hisobiga undan tayyorlangan va olinga preparatlar, yallig’lanishga qarshi, balg’am ko’chiruvchi, spazmolitik (silliq mushaklarni bo’shashtiruvchi) va qisman mikroblarga qarshi ta’sir ko’rsatish xususiyatiga ega.



1-rasm. Arpabodiyon o’simligi.

Shuning uchun uni turli shakldagi dori vositalari sifatida nafas yo'llarining shamollashida (laringit, traxeit, bronxit, zotiljam va boshqalar) keng miqyosda ishlatiladi va yaxshi samara beradi.

Ibn Sino arpabodiyon mevasini nafas olish qiyinlashganda uni yengillashtirish uchun terlatuvchi dori sifatida hamda boshqa kasalliklarda ham qo'llashni tavsiya etgan.

Xalq tabobatida o'simlik mevasidan tayyorlangan damlama terlatuvchi, siydik va o't haydovchi, ishtaha ochuvchi va yel haydovchi dori sifatida ishlatiladi.

Hozir tibbiyotda arpabodiyonning mevasidan tayyorlangan damlama (mevaning bir choy qoshig'i bir stakan qaynab turgan suvga solib damlanadi) 1/4 stakandan kuniga 3-4 marta ovqatdan 30 daqiqa oldin surunkali bronxitlarda, yo'talni yumshatish uchun, balg'am ko'chiruvchi dori sifatida ichiladi.

Chunonchi, mevasidan damlama tayyorlaganda (5gr meva 200ml(1 stakan) qaynagan suvda damlanadi) ovqat hazm bo'lishini yaxshilaydi, qorin sanchig'ini qoldiradi va oshqozon-ichak sekretsiyasini oshirish xususiyatiga ega. Preparat ta'sirida oshqozon-ichakning sekretor va harakat faoliyati jonlanadi.

Bundan tashqari arpabodiyonning efir moyi qo'shilgan kompleks preparatlar ham mavjud. Ko'krak eleksiri (30-40 tomchidan) va novshadil E-arpabodiyon tomchisi (10-15 tomchidan) shular jumlasidandir. Nafas yo'llari shamollaganda ichiladi.

Arpabodiyon ich yumshatuvchi va ko'krak og'rig'iga qarshi ishlatiladigan yig'malar - choylar tarkibiga kiradi.

Arpabodiyon efir moyi anizet - *Pimpinella anisetum Boiss.* o'simligi mevasidan ham olinadi. Anizet ikki yillik o't o'simlik sifatida o'stiriladi. Bu o'simlik mevasi tarkibida 8%dan ko'proq efir moyi bo'ladi. Efir moyi tarkibida esa 77-87% anetol bor.

Arpabodiyon efir moyiga o'xshagan bir xil kimyoviy tarkibga ega bo'lgan efir moyi tropic mamlakatlarda (Xitoy, Yaponiya, Vetnam va boshqalar) uchraydigan va o'stiriladigan doim yashil *Illicium verum Hook* daraxti mevasidan olinadi. Bu o'simlikning mevasi yulduzsimon anis mevasi (*Fructus Anisi stellati*) yoki bad'yon nomi bilan oziq-ovqat sanoatida ishlatish maqsadida chet eldan keltiriladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O.P.Pratov, M.N.Maxsumov. Asoratsiz dori- darmon. O'qituvchi nashriyoti 2006. 47-48b.
2. A.Abzalov, M.Yulchiyeva, D.Mustafokulov. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasii va ekologiyasi. Toshkent. Tafakkur bo'stoni nashriyoti 2018- 186b
3. https://uz.warbletoncouncil.org/hinojo-11192